
Farg'ona shahrida loyiha qiymati 2 million dollar bo'lgan polietilen qop ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahri "Mustaqillik" MFY hududida tashkil etilgan Polietilen qop ishlab chiqarish korxonasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.

Tadbirkor O'tkirbek Mamadaliyev rahbarligidagi "Xushrui Gulnoz" XK tomonidan amalga oshirilgan loyiha qiymati 2 million dollarni tashkil etadi. Yillik 43 million dona polietilen qop ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonada 100 nafar hamyurtlarimiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldilar.

"Xushrui Gulnoz" xususiy korxonasida shuningdek, ofis qog'ozlari, barcha turdagi salftkalar, gigiyena vositalari ishlab chiqariladi.

2023-09-07 08:43:05